



## SURUNKALI GEPATITLARNI DAVOLASHDA DIETOTERAPIYANING SAMARADORLIGI

**Shamuratova N.Sh.**  
**Zokirxodjayev Sh.Y.**  
**Ruzmetova D.A.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19352076>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 22-mart 2026 yil  
Ma'qullandi: 26-mart 2026 yil  
Nashr qilindi: 31- mart 2026 yil

### KEY WORDS

*Surunkali gepatitlarni davolashda dietoterapiyaning samaradorligini va ovqat ratsionini mahalliy mahsulotlar bilan boyitishni takomillashtirishdan iborat..*

### ABSTRACT

*Ma'lumki surunkali gepatitlarda jigarda yog' moddalari ko'payishi va oqsilning kamayishi bilan bog'liq yallig'lanishga xos bo'lgan jarayon kuzatiladi. Bu jarayonni me'yorlashtirishda parhez taomlarning tarkibidagi oqsil, lipotrop moddalar va vitaminlar ahamiyatlidir. Jigar surunkali kasalliklarida farmokologik va parhez ovqatlanish orasidagi bog'lanishni hisobga olmaslik, parhez davolashda qabul qilingan Pevzner parhez stollarini hozirgi vaqtda shifoxonalarda to'laqonlik bilan foydalanilmaslik va undagi chetdan keltiriladigan mahsulotlar (grechka, perlovka, rus no'xoti, dengiz mahsulotlari va b.) ni iqtisodiy jihatdan qimmatligi, hamda evolyutsion jarayondagi hazm tizimiga to'liq mos kelmasligi, hazm tizimi mahalliy oziq-ovqatlarni o'zlashtirishga moslashganligi inobatga olib, surunkali gepatitlar davosida parhez taomlarni tayyorlashda yangi texnologiyalarni qo'llagan holda ularni biologik faol moddalar, zarur makro va mikronutrientlar bilan boyitish va mahalliy taomlarni yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir.*

**Dolzarbliigi.** Ma'lumki surunkali gepatitlarda jigarda yog' moddalari ko'payishi va oqsilning kamayishi bilan bog'liq yallig'lanishga xos bo'lgan jarayon kuzatiladi. Bu jarayonni me'yorlashtirishda parhez taomlarning tarkibidagi oqsil, lipotrop moddalar va vitaminlar ahamiyatlidir. Jigar surunkali kasalliklarida farmokologik va parhez ovqatlanish orasidagi bog'lanishni hisobga olmaslik, parhez davolashda qabul qilingan Pevzner parhez stollarini hozirgi vaqtda shifoxonalarda to'laqonlik bilan foydalanilmaslik va undagi chetdan keltiriladigan mahsulotlar (grechka, perlovka, rus no'xoti, dengiz mahsulotlari va b.) ni iqtisodiy jihatdan qimmatligi, hamda evolyutsion jarayondagi hazm tizimiga to'liq mos kelmasligi, hazm tizimi mahalliy oziq-ovqatlarni o'zlashtirishga moslashganligi inobatga olib, surunkali gepatitlar davosida parhez taomlarni tayyorlashda yangi texnologiyalarni qo'llagan

holda ularni biologik faol moddalar, zarur makro va mikronutrientlar bilan boyitish va mahalliy taomlarni yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

**Tadqiqot maqsadi.** Surunkali hepatitlarni davolashda dietoterapiyaning samaradorligini va ovqat ratsionini mahalliy mahsulotlar bilan boyitishni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Barcha turdagi surunkali hepatit bilan og'riqan bemorlar tadqiqot uchun olingan. Xorazm viloyati ko'p tarmoqli tibbiyot markazining gastroenterologiya bo'limida nazorat ostiga olingan 21 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan 45 nafar bemor surunkali jigar kasalliklari bilan xastalangan va an'anaviy davolangan bemorlar olingan. Mahalliy mahsulotlardan tashkil topgan taomnomaning oziqaviy va biologik qiymati, kunlik taomnoma tahlilining asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari, qondagi ALT va AST, umumiy bilirubin, kreatinin va mochevina miqdori interleykin va globulinlar miqdorini baholashdagi venoz qon ko'rsatkichlari tadqiqot predmeti sifatida olingan. Tadqiqotda mahalliy mahsulot – sorgodan tayyorlangan taomlardan tashkil topgan dietoterapiya bemorlarni davolashda qo'llanildi.

Sorgoning kimyoviy tarkibi o'rganib chiqilgan va quyidagi jadvalda tarkibiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

100 gramm sorgo kimyoviy tarkibi		
1	Kkal	323
2	Oqsil	10,6 g
3	Yog'	4,1 g
4	Uglevod	59,6 g
5	Suv	13,5 g
6	Vitamin V1	0,237 mg
7	Vitamin V2	0,142 mg
8	Vitamin RR	2,927 mg
9	Kalg'tsiy	28 mg
10	Natriy	6 mg
11	Fosfor	287 mg
12	Magniy	171 mg
13	Temir	4,4 mg
14	Selen	0,7 mkg
15	Rux	2,5 mg

Sorgo oqsil va uglevodga boy bo'lib, bu uning ozuqaviy qiymatini belgilaydi. 1 g sorgo tarkibida 62 mg gacha polifenolli birikmalarni saqlaydi. Taqqoslash uchun antioksidantlarning chempioni xisoblangan chernikaning 100 g da faqat 5 mg polifenolli birikmalar bor.

#### Oq jo'xori (sorgo) bo'tqasining tarkibi


Bir kishiga mo'ljallangan			
No	Masalliq	Og'irligi, g	Sof og'irligi, g
1	Oq jo'xori	40,0	39,2
2	Suv	300,0	300,0
3	Qatiq yoki ayron	150,0	150,0

4	Ukrop	2,0	1,6
5	Tuz	3,0	3,0
6	<u>Chiqishi:</u>	50\493,0	

Tayyorlanishi: Oq jo'xori yaxshilab tozalanadi. So'ngra keli (o'g'ir) da tuyiladi, ustki qismi (kepagi) tushiriladi va yaxshilab 3 marta yuviladi. Suv solingan qozonda pishguncha qaynatiladi. Pishishiga oz qolganda tuz solinadi va 1-1,5 soat pishiriladi. Pishgach qozondan olib sovutiladi. Tayyor go'jamizni kosaga suzib olib qatiq yoki ayron bilan aralashtiramiz va ustiga maydalab qir qilgan ukrop sepamiz.

Tadqiqot uchun jami 45 nafar bemorlar (surunkali gepatitlar o'rta faol darajada virus etiologiyali-23, toksik etiologiyali-12, noma'lum etiologiyali-10) olindi va ushbu guruhlardagi bemorlarning qondagi bilirubin, ALT, AST va umumiy oqsil ko'rsatkichlari aniqlandi va ularning o'rtacha qiymati o'rganildi.

### Mahalliy mahsulotlardan iborat dietoterapiya



Yangi - mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan parhez taomlar bemorlarni immunobiologik xususiyatini oshiradi, kasallikni tuzalish davrini qisqartiradi. Mahalliy mahsulotlardan tashkil topgan dietoterapiyaning surunkali gepatitlarda qo'llanilishi sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy samarasini beradi. Surunkali gepatitlar davosida ishlatiladigan farmakologik vositalarni kamaytirishda yangi dietoterapiya muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida an'anaviy dietoterapiya bilan va mahalliy mahsulot - sorgodan tashkil topgan mahalliy dietoterapiya bemorlarni davolashda qo'llanildi va ikkala dietoterapiyaning natijalari taqqoslandi. Mahalliy dietoterapiyadan keyin bemorlarda klinik belgilarning kamaygani va ularning umumiy ahvoli ijobiy tomonga siljigani kuzatildi.

**Asosiy klinik belgilarning qiyosiy xarakteristikasi**

No	Klinik belgilar	Davolashdan oldin	Davolashdan keyin (Mahalliy mahsulotlardan iborat dieto-terapiya)
1	O'ng qovurg'a yoyi ostidagi og'riq	+++	+
2	Ishtahasizlik	+++	0
3	Holsizlik	+++	0
4	Sklerada va tanada sarg'ayish	+++	+
5	Siydikni kam ajralishi	+++	0
6	Jigarning kattalashishi	+++	+
7	Taloqning kattalashishi	+++	+

**Xulosa.** Oq jo'horining tarkibi gepatoprotektiv va lipotrop ingredientlarga boy. Mahalliy mahsulotli dietoterapiyadan so'ng bemorlarda klinik belgilar ma'lum darajada ijobiy tomonga o'zgarishi kuzatildi. Surunkali jigar kasalliklari bilan og'riqan bemorlarda o'tkazilgan dietoterapiyadan so'ng ALT, AST fermentlari va bilirubin, oqsil miqdori, Hb, eritrotsitlar va ECHT qonda me'yorlashuv tomoniga o'zgardi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Шамуратова, Н. Ш., Рузметова, Д. А., Саттарова, Н. А., & Нуруллаев, С. Х. (2024). ЖИРОНОКИСЛОТНЫЙ СОСТАВ ЛИПИДОВ ЗЕРНОВОГО СОРГО (SORGHUM) ВИДА «КАТТАБАШ». International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 1238-1245.
2. Sh, S. N., Shermetov, R., & Nurullayev, S. (2024). Nutritology and proper nutrition. Texas Journal of Medical Science, 28, 21-23.
3. Шомуротова, Н. Ш., Дусчанов, Б. А., Зокирходжаев, Ш. Я., & Рўзметова, Д. А. (2023). СУРУНКАЛИ ГЕПАТИТ БИЛАН ХАСТАЛАНГАН БЕМОЛРАНИНГ ЁЗ-КУЗ МАВСУМИДАГИ КУНЛИК ОВҚАТЛАНИШ ТАРТИБИНИ ГИГИЕНИК БАҲОЛАШ.
4. ШАМУРАТОВА, Н., ЗОКИРХОДЖАЕВ, Ш., & ДУСЧАНОВ, Б. (2023). ПАРҲЕЗ ОВҚАТЛАНИШНИНГ ҚАНДЛИ ДИАБЕТДА САМАРАДОРЛИГИ.
5. Зокирходжаев, Ш. Я., Худойбергенов, А. С., Дусчанов, Б. А., Шомуродова, Н., & Масобиров, Р. П. (2020). Обоснование применения зернового сорго (джугары) в диетотерапии при хронических заболеваниях.
6. Шамуратова, Н. Ш., Зокирходжаев, Ш. Я., & Рўзметова, И. Я. (2023). Сурункали гепатит ва ковид-19 билан бирга кечган патологик жараёнда овқатланиш статусини урганиш ва баҳолаш (Doctoral dissertation, Современные тенденции развития инфектологии, медицинской паразитологии, эпидемиологии и микробиологии, Узбекистан). Современные тенденции развития инфектологии, медицинской паразитологии, эпидемиологии и микробиологии, Узбекистан.
7. Nadira, S., Duschanov, B. A., & Ruzmatova, D. A. (2022). Clinical-immunological efficiency in diethotherapy of chronic hepatitis with sorgo. Academicia Globe, 3(02), 6-11.

8. Sh, A. S., Turabayeva, M., & Ruzmetova, D. A. (2025). NEMIS TILIDAGI BIR KOMPONENTLI VA KO'P KOMPONENTLI YURIDIK TERMINLAR TARJIMASI. *Pedagogy*, 1, 2-4.
9. Kadambayevna, A. N., Shanazarovich, A. S., & Atabayevna, R. D. (2023). NEMIS TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVISTIK TADQIQI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(5).
10. Шамуратова, Н. Ш., Зокирходжаев, Ш. Я., & Рузметова, Д. А. (2023). ЖИГАРНИНГ СУРУНКАЛИ КАСАЛИКЛАРИДА ДИЕТОТЕРАПИЯДА МАҲАЛЛИЙ МАҲСУЛОТЛАР ҚЎЛЛАШНИНГ САМАРАСИ (Doctoral dissertation, UZBEK JOURNAL OF CASE REPORTS, Узбекистан). *Uzbek journal of case reports*, Узбекистан.

